

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
"UMUMIY BIYOLOGIYA" KAFEDRASI 402-GURUH
TALABASI**

Bobojanova Yulduz Baxtiyarovna

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Barqaror rivojlanish talimining shakllantirish uslublari.

**Ta'lim yo`nalishi: «Biologiya»
Bakalavr darajasini olish uchun**

Urganch – 2012

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
"UMUMIY BIYOLOGIYA" KAFEDRASI 403-GURUH
TALABASI**

Bobojanova Yulduz Baxtiyarovna

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Barqaror rivojlanish talimining shakllantirish uslublari.

**Ta`lim yo`nalishi: «Biologiya»
Bakalavr darajasini olish uchun**

**Kafedra mudiri:
Ilmiy Raxbar:
Taqrizchi:**

**q.x.f.n. Matyaqubova Y.
dos.Abdullayev I.
Yavqachev D.**

REJA:

KIRISH

I.Bob . Adabiyotlar sharhi

II. Bob . Asosiy qism

2. 1. Dunyoqarash izlab

2.2. Dunyoqarash shunchalik muhimmi?

2.3. O'qituvchining turli dunyoqarashlarga munosabati.

2.4. Yangi olam uchun yangi bilim zarurmi?

III. Bob. Barqaror rivojlanish ta'limi.

3.1.Barqaror rivojlanish ta'limining ustivor yo'nalishlarini qayta baholash

3.2 . Ustivor jihatlarini qayta ko'rib chiqish yaxshiroq natijalarga olib keladi.

3.3. Maktablarda ikkilamchi qayta ishlash uchun chiqindilarni yig'ishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi

IV.Bob. .Barqaror rivojlanishga o'tish tamoyillari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish, anglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Islom Karimov

KIRISH

Kishilik jamiyati tarixida siyosiy ziddiyatlarga boy juda ko'p davrlar bo'lgan. XX asrning oxiriga kelib insoniyat kelajakda qanday qilib tinch va osoyishta hayot kechirish mumkin, degan savol eng dolzarb masalaga aylanib qoldi. Ushbu savolga ilk bor Gro Xarlem Brundtland boshchiligidagi xalqaro komissiya "Barqaror rivojlanish kansepsiyasi" da

Umumlashtirgan tarzda javob berishga harakat qildi. Shu tariqa, 1987 – yildan buyon dunyo hamjamiyatining birgalikdagi hal qilayotgan masalalaridan biri - mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosda barqaror rivojlanishga erishish hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining maqsadi - kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda hozirgi zamon kishilik jamiyatining uzviy bog'langan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini bir meyorda ta'minlashdir. Meyor esa bevosita kishilarning bilim va ongiga bog'liq. Ularga barqaror rivojlanishga oid bilim berish va ongini rivojlantirish hamda shakllantirish, ta'lim va tarbiya sohasi davlat va jamiyatning alohida e'tiborida turgan O'zbekiston Respublikasi kabi mamlakatlarda to'g'ridan - to'g'ri o'qitish masalasi zamon talabi darajasida qo'yilgan. Zero har bir yurtdagi ta'lim holati davlat va jamiyat imkoniyati va kelajak istiqbolini ko'rsatuvchi "barometr" bo'lib xizmat qiladi, uning madaniyatini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini aniqlashtirib berishga xizmat qiladi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, o'zini hurmat qiluvchi har bir mamlakat ta'lim sohasiga ustivor masala sifatida qaraydi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda ham ta'lim sohasida juda kata o'zgarishlar qilinadi. Avvalam bor, uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan "Qalin chodirlar" bilan ajratib qo'yilgan ta'lim tizimi va yoshlar rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalana boshladilar va ularning ilm - fan

yutuqlaridan barhamand bo'la boshladilar. O'zbekistonda umumjahon va mintqa miqyosdagi YUNEP, YuESKO, YuNISEF, Markaziy Osiyo Ekologik Markaz kabi o'nlab xalqaro tashkilotlarini vakolotxonalari o'z ishini boshladi.

1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni bilan birgalikda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturiga "Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'ldagi va o'qitish uslubiyotidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga keladigan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo'q ...", deya etirof etilgan. Keyingi 10 yil davomida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yurtimizda bir qator ijobiy ishlar qilindi. Hususan maktabdan tashqari ta'limni muvofiqlashtiruvchi davlat muassasalaridan biri "Bioekasam" markazi 2003 yildan boshlab BRT ni yo'lga qo'ygan edi. O'zbekiston Milliy universitetida barqaror rivojlanishning geoeologik jihatlari ishlab chiqarilmoqda. Ushbu satrlar muallifining ham bir qator o'quv qo'llanma, risola va maqolalarni aynan ushbu mavzuni yoritishga qaratilgan. Biroq mamlakatimizda BRT ga doir maxsus o'quv tizimi shakllanmagan. Binobarin mavjud kamchiliklarni evolutsion tarzda bartaraf etmoq zamon talabidir. Milliy ta'lim sohasida yetishmayotgan quyidagi masalalarning yechimini topishga qaratilgan:

- 1) Dunyoning bir qator mamlakatlarida tan olishgan yangi barqaror rivojlanish ta'limi bilan yaqindan tanishish;
- 2) Ekologik ta'lim barqaror rivojlanish ta'limining bir qismi ekanligini anglab yetish;
- 3) Ta'limga noan'anaviy ravishda yondashish asosida barqaror rivojlanish ta'limini o'zlashtirish;
- 4) Ta'lim va tarbiyaga yangicha dunyoqarashlarni o'zlashtirib olish.

Olib borilgantatqiqotlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning 3- bosqichida ko'rsatib o'tilgan "to'plangan (jumladan dunyo A.N.) tajribasini tashkil qilish va umumlashtirish asosida O'zbekistonni ijtimoiy - iqtisodiy (nafaqat ekologik - A . N)rivojlantirish istiqbollariga muvofiq Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish imkoniyatini bersa ajab emas .

Adabiyotlar sharhi

Sayyoramiz holati

Barqaror rivojlanish nimani anglatishini tushinish uchun, dunyoni nima “beqaror” holatga olib kelishini aniqlab olmoq zarur. Bir qarashda bu aniq ravshan masalaga o'xshaydi, aslida esa ta'lim tizimida dunyoning hozirgi “beqarorlik” holati sabablarini o'quvchilar tushinishiga yordam beruvchi jihatlariga yetarli darajada etibor qaratilmayapti. Bunday vaziyat negagoglarning o'zlari mazkur sabablarni tushinmasligi oqibatida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Ammo bu ularning aybi emas, aslo. Buning sababini o'zgarib borayotgan murakkab dunyoga yuz berayotgan barcha voqea va hodisalardan xabardor bo'lish imkoniyatini cheklayotgan vaqt tanqisligidan izlamoq kerak. Biroq “beqarorlik” bag'oyat chuqur ildiz otgan bo'lib, ular bizning xatti - harakatlarimiz, o'y - hayollarimizga ta'sir ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish ta'limi zarurligining ahamiyati shuning uchun ham ortib bormoqda. Bir qancha aqidalarni qabul qilish va ular asosida o'quvchilarga barqaror rivojlanish masalalariga qay tarzda yondashish va shu bilan bog'liq holatlarda qanday harakat qilish zarurligini ko'rsatib ber a oladigan yo'l - yo'riqni shakllantirish ushbu “ ikki tamonlama tazyiq ”. Qa javob bo'lishi mumkin. Yosh ovchi uchun bu yo'l -yo'riq aynan shunday yondashuvga misol bo'la oladi, yani :” miltiqni o'qla - nishonga ol -o'q uz “ . Shubhasiz bu - safsata . Biroq hozirgi kunda ko'proq shunday yondashuv taklif etilmoqda . {1}

Demak, biz o'zimiz ish olib borayotgan vaziyatni batafsil aniqlab olishimiz lozim . Kishilarni “ beqaror dunyo ” dan habardor qilishning an'anaviy usuli ekosferaga ta'sir kuchayganini tasvirlovchi statistic malumotlarni, masalan shu bobda keltirilgan rasmlarni ko'rsatishdir. {3,5 }

Ta'lim va maorifga bunday yondashuv ko'pincha “alarmistik” deb ataladi . Bunda agar kishilar ba'zi malumotlardan xabardor bo'lsalar, o'zgarish zarurligini darhol tushinib yetadilar, degan tahminga asoslaniladi. Aslida bunday yondashuv o'quvchilarda : “ Falokat yaqinlashib kelmoqda, demak imkoniyat boride hamma narsadan foydalanib qolaylik ” , -qabulidagi munosabatni uyg'otadi .

Bunday munosabat barqaror rivojlanish ta'limi uchun maxsus asos bo'la olmasligi aniq .

Shuning uchun ba'zi pedagoglar ta'lim sabablarga ko'ra ijobiy o'zgarishlar misolidan foydalanishga harakat qiladilar va natijada "Hammasi yamon, lekin juda xavotir oladigan darajada emas" , - degan fikr paydo bo'ladi. Muntazam o'tkaziladigan shanbaliklar, shaharni ko'kalamzorlashtirish ishlari ostida tabiat muhofazasiga qaratilgan ommaviy tadbirlar, Orol dengizi atrofida tuproq buzilishining oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar hamda tegishli qonunhujjatlarining qabul qilinishi mahalliy darajadagi ijobiy misollardandir. Globol darajada esa bular :

atmosfera o'zon qatlamini yemiruvchi xlorftoruglevodorodlarning chiqarilishini kamaytirish uchun kurash ; Orol dengizini qutqarish xalqaro harakati ; sanoatda energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish ; qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi tadbirlardir .

Ijobiy misollar mahalliy darajada va birmuncha kam ekanligi hamda ularning globol darajadagi salbiy o'zgarishlar bilan taqqoslab bo'lmazligi maktab o'quvchisiga ham ayon . Bu insonlarni "Ekologik qiyomat kuni" muqarrarligi fikriga yana bir bor olib keladi . Bolalar ham , kattalar ham ahvol juda yamon , lekin vaziyatni o'zgartirib bo'lmaydi , degan fikrdalar : " Nima ham qilardik ? Yana g'orga qaytib kirmaymizku " . Bunday kayfiyatning yuzaga kelishi , agar biz inson xulq-atvorida barqaror kelajakka yetaklovchi o'zgarishlar shakllanishini hohlasak , u holda odamlarga yorqin istiqbolni ko'rishda yordam berishimiz lozim degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi . Buning uchun mavjud " Barqaror rivojlanish " modeliga muqobil bo'lgan boshqa , yetarlicha kuchli va tasirchan ijobiy misollar zarur bo'ladi . Zamonaviy texnologiyalar esa yana shunday misol bo'la oladi . " Biz , biosferada sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganuvchi mutaxassislar, insoniyatni yengib bo'lmaydigan muommolar kutayotgan o'sha taqiqlangan chegarani bugunham ko'rsatib bera olamiz , natijada inson tanazzulga uchrashi va , hatto , insoniyat tarixi butkul tugashi mumkin . Insoniyat Yer yuzidan yo'q bo'lib ketishi ehtimoli oldida turibdi"

Barqaror rivojlanish g'oyasi faqat tabiyat bilan bog'liq emas . Bunda ijtimoiy sharoit , siyosat va iqtisodiyot ham kata ahamiyatga ega . So'ngi o'n yillikda ko'plab mamlakatlarda aholi daromadi o'sgani holda , dunyoda milliy , mintaqaviy darajada tengsizlik orta bordi . Tengsizlik bilan bir vaqtda qashshoqlik , salomatlik va tinchlik muammolari ham keskinlashtirmoqda . Rivojlangan mamlakatlarda daromad darajasi o'sishi bilan birga jinoyatchilik , giyohvandlik va ichkilikbozlik , ruhiy kasalliklar hamda " farovonlik kasalliklari " deb nomlanuvchi semirish va yurak hastaliklari ham keng tarqalib bormoqda.

Ong holati

Aslida iqtisodiyot atrof - muhit va Yer ekotizimining bir qismidir . Barqaror iqtisodiyot o'sishni taminlash iqtisodiyotniekologik tamoyillardan kelib chiqqan holda qayta ko'rishni talab etadi . Bu iqtisodiyotniglobal ekotizm bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim .

(Laster Broun 2005)

Dunyoqarash ulkan ahamiyatga ega ekanligiga etiborni qaratgan Eynshteyn , shubhasiz haq edi . Dunyo deb ataluvchi mehanizmning qanday " ishlashi " haqidagi tasavvur ongimizning tubida joylashgan , u dunyoqarashimizni belgilaydi va , hatto , bizning dunyoni qanday qabul qilishimizga ham tasir ko'rsatadi . Aynan shuning uchun ham insonlarning dunyoqarashi masalasi muhokamasiga alohida etibor qaratilishi zarur.

Dunyoqarashning zamonaviy tizimi , asosan , Kopernikdan boshlab G'arb mutafakkirlari tamonidan shakllantirilgan . Bizning dunyo, u qanday ko'rinishga egaligi , qanday mavjud bo'lishi , uni qanday asrashkerakligi , qanday yashash kerakligi va ko'pgina boshqa masalalar Uyg'onish davrigacha Islom faylasuf olimlari Farobiy , Xorazmiy , Abu ALI Ibn Sino va boshqa vatandoshlarimiz tamonidan batafsil tariflab berilgan edi . Ular o'z asarlarida Yerning tuzilishi , uning

iqlimi , dengizlari , daryolari , qit'alar va boshqalar haqida ma'lumotlar berib o'tishgan . Masalan , Beruniy Yerning dumaloq shaklda ekanini va uning qarama -qarshi tamonida qumli soat va haqiqiy dunyoni bilmaganligi sababli halok bo'ladilar “ deb bejiz yozilmagan edi.

Shunday bo'lsada .Xudo Gux sohasiga tegishli deb etirof qilinadi . U Buyuk Yaratuvchi . Butun dunyoning tamondan yaratilgan . Koinot va Yerdagi hayot kechirayotgan eng kichik organizmlar Inson uchun xizmat qiladi . Inson buni idrok qiladi . Shuning uchun u doimo izlanadi . Lekin u hech qachon chegarani esdan chiqarmasligi lozim . Har bir narsaning boshi va oxiri bo'ladi . Yer yuzida jannatni ham yaratish mumkin , deb o'ylaydilar : faqat uning uchun to'g'ri mehanizmlarni tanlash kerak

...

Bu cheksiz taraqqiyot g'oyasidir . Insonning yangi va mukammal texnologiyalar hisobiga yuksalish uni yangitib qo'ydi . Texnologiyalar nafaqat asosiy ehtiyojlarimiz va hayotiy istaklarimizni qondirishi , balki koinotda sayr qilishdek go'zal orzularimizni ham ro'yobga chiqarishi kerak edi .

Sanoat asri dunyoqarashni umumiy tarzda shunday tasavvur qilishimiz mumkin . Afsuski , tabiatdan uzilgan holda yashash va ayni vaqtda tabiatni to'liq boshqarishga erishish (bayramga ob- havoni buyurtma qilish darajasida) , diqqatni faqat shaxs muvofaqiyati , moddiy taminot , fan` asosidagi taraqqiyotga qaratish kabi qarashlar hali ham bizning shuurimizni band qilib yotibdi . Shuning uchun sanoat davri iqtisodiyoti ham bozor ko'rsatmalari asosida zahiralarni maxsulotga aylantiruvchi mashinaga o'xshashdir . Shunday ijtimoiy - iqtisodiy tizimni biz aynan XXI asr boshlarida merosqilib oldik . Albatta bu mexanizmning tuzilishi murakkablashdi , u tezroq ishlay boshladi , lekin uning ishlash tamoyili taxminan 200 yil oldingidek qolmoqda . Bundan tashqari , iqtisodiyot haqidagi dunyoqarashlarimizga sezilarli tasir ko'rsatuvchi turli xil afsonalar paydo bo'ldi . Biz chin ko'ngildan ishonadigan bu afsonalar , iqtisodiyot o'ziga xos “ tabiiy qonunlar asosida

ishlaydi degan hom - hayolni yaratdi . Ular
biz qarshilik qila olmaydigan darajada ongimizga singib
ketdi .

Bir paytlar Britaniya primer ministry : “ Bozorga
qarshilik qilib bo’lmaydi “,- degan edi .

Bu afsonalardan bazilarini keltirib o’tamiz .
Narx - navo - bozorni asosiy tartibga soluvchi
Vosita.

Sanoat bizning ehtiyojimizga qarab maxsulot ishlab
chiqaradi (talabga javob beradi). Bu jarayonda
bir qancha miqdorda chiqindi ham chiqadi .

Boshqacha qilib aytganda , iqtisodiyot bizning
talablarimizni qondirish uchun samarali ishlamoqda
Atrof -muhitning ifloslanishi esa chindan ham yovuzlik
,biroq shunchalik muhim muammo emas . Agar
rivojlanishni istasak , atrof - muhitning ifloslanishiga
Rozi bo’lishimiz kerak.

G’arb iqtisodiyoti modellarini dunyoning boshqa
mamlakatlarida joriy etish , aholi sonining keskin
o’sishi va korrupsiya kabi muommalarni keltirib
chiqarishiga qaramay , farovonlik va boylik
olib keladi.

Bugungi voqelikka mos keluvchi iqtisodiyot “Chiqindilar
iqtisodiyoti “bo’lishi mumkin .Biz ishlab chiqaradigan
Narsalarning kata qismi , haqiqatdan ham ahlat , sanoat
chiqindilari va qisqa “umrini” axlatxonalarda tugatuvchi
maxsulotlardir. Iqtisodiyotimizni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:
“olish-ishlab chiqarish-foydalanish-tashlab yuborish”

Sxema

Ushbu formula barqaror rivojlanish ta’limi va ekologik ta’lim sohasidagi
ko’pgina tashabbuslar nima sababdan muvofaqiyat qozonilganligini
tushinishga yordam beradi, chunki bu tashabbuslar insoniyat materiallar va
chiqindilarni qay ko’lamda foydasiz tasarruf etayotgani haqida aniq tasavvur
bera olmaydi. Binobarin ular barqarorlikka erishish uchun muhim bo’lgan
o’zgarishlar haqida haqiqiy tushinchani shakllantirishda ham ko’maklasha
olmaydi. Buning sababi esa iqtisodiyot voqelikni ifoda etadi degan hom
hayolvoqelikni noto’g’ri idrok etishga olib kelishdir. Bu fikr ma’lum bir
maxsulotni ishlab chiqarish tamoyilini ham global iqtisodiyot tamoyillarini
ham tushinishda o’rinlidir: aslida insonlar iqtisodiy qonunlarini o’ylab topib,
ularning holis ekanini bo’rttirib ko’rsatishga urinadilar.

Fikr muloxazalarimizni yo’naltirishga yordam beruvchi ikki ko’chirmani
keltirib o’tamiz.

“insonlar tamonidan foydalaniladigan materiallarning taxminan 50%ini
qaytadan ishlatib bo’lmaydi” Rolf Jucker, Our Common Illiteracy.

“biz sotib oladigan va ishlatadigan materyallarning deyarli 93%i hech qachon bozor maxsulotlarga aylanmaydi. Bundan tashqari 80%maxsulot ishlatilganidan so'ng tashlab yuboriladi, qolganlari esa mo'ljallanganidan keyin xizmat ko'rsatadi” Emmori Lavins va boshqalar “ to'rt omil” Zamonaviy iqtisodiyotning yanada chuqurroq o'rganilganida, unda material va zaxiralarning tizimga qaytishi deyarli sodir bo'lmashligini ya'ni qaytma aloqani yo'qligi hali ham mavjud ekanini aytish mumkin. Bu elementlarning yo'qligi iqtisodiyotning suniy murakkabligiga qaramay tartibi sodda ekanligini ko'rsatadi. Qaytma aloqaning ahamiyatini pedagoglar yaxshi tushinadilar, negaki aynan interfaollik samarali talimning ham asosiy elementi hisoblanadi.

“Qaytma aloqa mavjud bo'lmagan tizimlar mukammal emas. Hech bo'lmasa rudementar qaytma aloqaga ega bo'lgan tizimlar tez suratda aqlli bo'lishi mumkin. Agar sotib olyotgan mashinangizning tutun chiqaruvchi quviri yo'lovchilarga qarab emas, to'g'ridan to'g'ri salonga tutun chiqarganida qanchalik ekologik beg'ubor mashina sotib olgan bo'lar edingiz?” Emoriy Labins

Buni anglash va ayniqsa qabul qilish ancha qiyin. Axir bu bilan dunyoni hozirgi ko'rinishda qabul qilishni shakllantiruvchi ko'rsatmalarimizga qarshi chiqiladida. Adolat yuzasidan “chiqindilar iqtisodiyotida” ham qaytma aloqa mavjudligini aytib o'tish kerak. Savdo talab va taklif orasidagi muvozanat – qaytma aloqa asosiga qurilgan tizimdir. U doim sotuvchilar va xaridorlar uchun ma'lumot yetkazadi. Savdo borgan sari qiyinroq tizimga aylanmoqda, lekin bir narsa o'zgarmoq bo'lib qolmoqda: bozorning asosiy tashkil etuvchisi narx qiymatdir. U shunchalik muxim bo'lib qoldiki, qiymat vabaxoni chalkashtira boshladik. “ko'proq” degan tushincha esa jamiyat ongida yaxshiroq degan tushinchaga tenglashib bormoqda.

Biosfera va geosfera bizlarga taqdim etuvchi ekologik xizmatlar (havoni tozalash, atmosferaning gaz tarkibini nazorat qilish, suvaylanishini amalga oshirish va h.k) ni baxolab bo'lmaganligi sababli ularning qadr qimmatini ham yo'q. ular zaxira manbai va chiqindi tashlanadigan joydan bo'lak narsani anglatmaydi ham. “Tabiiy kapitalizm” qo'llanmasida ekotizmning 17ta asosiy xizmatini pul qiymatida aniqlashga qaratilgan bir qator ishlar tahlil qilingan. Jahon yalpi mahsuloti 1998-yilda 39 trln AQSH dollari deb baholangan ekotizm xizmati esa 36 trln dollorni tashkil etgan. bu raqamlar munozarali ekanligiga qaramay ular zamonaviy iqtisodiyot ekotizmlarga nisbatan iqtisodiy qonunlarga zid ish ko'rsatayotganini tushinish imkonini beradi: iqtisodiyot asosiy kapitalni “yeb bitirmoqda” va foyda keltiruvchi tizimlarni yo'q qilmoqda.

Shunday qilib biz shaxs va jamiyat ongidagi dunyo qanday ishlashi haqidagi afsonalarni muhokama qilmoqdamiz. Barqaror rivojlanish ta'limi aniq muommalardan ko'ra aynan o'sha afsonalarga urg'u berish kerak. Chunki bu muommolar muayyan dunyoqarash va afsonalar mavjudligi natijasida paydo

bo'lgan . 2.2 fragmentdagi ma'lumot yuqoridagi fikrni yanada ochiqroq ochib beradi .{7}

Zamonamizning eng mashxur g'oyasi , ehtimol , konsyumerizm (istemolchilik)dir . Uning kirib kelishi jamiyat hayotida o'ziga has inqilob bo'ldi . “ Men sotib olaman - demak , men hayotman “ - bu Dekartning : _iborasining XX asrdagi o'zgartirilgan ko'rinishidir . {11}

1989 yilda “ Berlin devoir “ qulagach karikaturachi o'zgaegan ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatni shunday tasvirladi : Leninning qo'li avvalgidek ko'rsatmoqda , lekin inqilob barrikadalari va kommunizmga tamon emas balki g'arbga yo'naltirilgan va uning qo'lida “ Go shopping “ nomli supermarketning “tesko “ nomli arzon xaltasi bor {8}

G'oya sifatida konsyumerizm barqaror rivojlanish va unga oid ta'limga jiddiy qarshilik ko'rsatadi .

Darhaqiqat , agar ko'p istemol qilish shaxsni baxtli qilsa , demak baxt sababchisi bo'lgan istemolnichegaralash qiyin . Kim bunga rozi bo'ladi ? Kim baxtsiz hayotni hohlaydi ? Lekin , baribir hozir mavjud ekologik talim va barqaror rivojlanish talimi zamonning yetarli yo'nalishlari va ko'plab tatqiqotlarning natijalarini etiborga olmay asosan odobga chaqirishga harakat qiladi . Sayyoraga muhabbat yuzasidan yoki haqiqiy fuqoro kabi hayot kechirish uchun kishilar istemol darajasini kamaytirishadi , deb hisoblashadi . Bir qator tatqiqotlar shuni ko'satdiki , faqatgina 5% aholi odob me'yorlarini buzmaslikning yoki tabiat muhofazasining ahamiyatini tushinib yetib , o'zini shunday tutishi mumkin . Ekologik manaviyat yoki uning boshqa sohalarida faoliyat yurituvchi kishilar uchun yuqorida keltirilgan raqam kamdek ko'rinishi mumkin . Bu tushinarli albatta , chunki yuqoridagi raqamlarni hisoblar ekanmiz , o'zimizni va ehtimol , o'sha 5% ichida kiruvchi yon atrofimizdagi kishilarni nazarda tutamiz , ular tanishlarimizning 60 % ini tashkil etishi mumkin , lekin shunga qaramay ,

jamiyat miqyosida 5% jiddiy natijalarga erishish uchun esa barqaror rivojlanish ta'limi faoliyati doirasida “yashillar” va “ekologiyaga qiziquvchilar”nigina qamrab olish bilan ish bitmayda.[9,11]

Barqaror rivojlanish ta'limiga qiziquvchi pedagog uchun konsyumerizm afsonalarini muhokama qilish,ehtimol,biosfera holatini o'rganishdan ko'ra muhimroqdir.Maktablarda is'temolchilik ba'zan faqat iqtisoditot asoslari yoki iqtisodiy geografiya darslarida qoralanadi,odatda,bu mavzu umuman chetlab o'riladi.[6]

Konsyumerizmga kamdan kam hollarda jiddiy muammo deb qaraladi.Uning sabablari,oqibatleri va uni yengib o'tish yo'llari kamdan kam vaziyatlarda muhokama qilinadi.Ko'pgina mualliflarning fikrlari yana ham qat'iyroqdir: asl muammolar yoki ularning asl qo'llanmalarini barqaror rivojlanish

konsepsiyasining ilmiy jihatdan muqobilligi haqidagi gap-so'zlar ortiga va vaqti-vaqti bilan "tabiat muhofazasi" uchun harakat qilib, ayni paytda, hayolimizda moddiy narsalarni ko'zlab, o'zimizni o'zimiz aldaymiz, deb hisoblashadi. To'lov masalasi ko'ndalang bo'lmaguncha ekologik do'stona va ijtimoiy mas'uliyatli bo'lib qoladiganga o'xshaymiz.[6]

Konsyumerizm qayerdan paydo bo'lgan?

Dunyodagi eng yirik transmilliy korporatsiyalardan biri bo'lgan Jeneral Motors direktorlar kengashi raisi Charlz Ketteringni : "Iqtisodiy gullab-yashnashning kaliti-jamiyatda qanoatlanmaslik hissini yaratishdir", deyishga nima majbur qildi?

Bu bog'liqlikni shakllantirishda Edvard Berneyz katta hissa qo'shgan. Ekologik ta'lim va ma'naviyat bo'yicha mutaxassislar orasida uning nomi deyarli ma'lum emas. Ammo iste'mol bilan bog'liq hozirgi vaziyatni shakllantirishda uning o'rnini beqiyosdir.

Berneyz : "Pablik rileyshnz"(PR), ya'ni omma bilan aloqalaridan biri hisoblanadi. Zigmund Freydning jiyani bo'lgan Berneyz amakisining nazariyalarini amaliyotda yaxshi qo'llay olgan. Freyd o'z ongini to'liq boshqara olmasligi tufayli oddiy qora kuchlarga va yovvoyi xohishlarga bo'sunadi, deb ishonardi. Berneyz korporativ PR bo'yicha mutaxassis bo'lgani uchun Freyd ta'limotini amaliyotda qo'llab ko'rish imkoniyatini aniqladi. Buni journalist Endro Billen chiroyli ta'rifladi: "Xa, ongsizlik insonni urushga olib kelishi mumkin, lekin aynan shu holat insonni supermarketga ham yetaklashi mumkin. Inson o'z hatti-xarakatlari sabablarini bilmasligi, bu sabablarni o'z sohasining mutaxassislari ham bilmaydi, degan gap emas. Aynan odamlarni boshqarishi va boshqa insonga nisbatan nafrat hissini uyg'otishi yoki umuman keraksiz narsaga egalik qilish hoxishini shakllantiruvchi ta'sir o'tkazishi mumkin.[7,9]

Berneyz Amerika korporatsiyalari uchun haqiqatdan ham kerak edi. Ular XX asr o'rtalariga kelib insonlar barcha zarur narsaga ega bo'ladilar va tavarlarga talab keskin pasayadi, deb xavotir ola boshladilar. Ishlab chiqrish ko'lamlari kengayib borar, tovarlar arzonlashar va iste'molchilar muhim tovarlarni borgan sari kamroq xarid qiladilar. Katta yoshdagilarning narsalarga: "Bu yaxshi buyum, u 30 yil xizmat qiladi...", "Bu shkafni tashlash kerak emas, u hali juda baquvvat..." va xokazo tarzidagi munosabatlariga e'tibor berib, korporatsiyalarning xavoyirlanishlari bejiz emasligini tushunish mumkin.

Bu xavfga tovarlarni sotishga bo'lgan yangicha yondashuv javob bo'ldi. Reklama inson psixologiyasining irratsional ruhiy jihatlariga qaratila boshladi. Aslida tovarning o'zi emas, balki hayot uslubi, tarzi uchun uning ortidagi shaxsning jamiyatdagi o'rnini muxim bo'lib qoldi.

Berneyz tovarlarni emotsional ehtiyojlarning o'rnini bosuvchi, deb tasavvur etilsa, unda deyarli cheksiz bozor yaratish mumkin, deb taxmin qildi. Aslini olganda buyumlar emotsional ehtiyojlarni ham, ma'naviy ehtiyojlarni ham qondira olmaydi.[7,10]

Shuning uchun ham tovar xarid qilishdagi an'anaviy mafkura, ya'ni miqdor ko'rsatkichi emas, sifat ko'rsatkichi hukmron tus oldi. Shu tariqa "Yaxshi", "Katta" ga o'zgartiriladi. Qizig'i shundaki, bu qarash atayin yaratilgan bu tushunchalar

dialektika qonuni asosida o'zaro bog'liq bo'lsa ham mazmuni jihatdan bir-biridan juda farqlanadi. Ularning o'rnini almashtirib ishlatish mumkin emas, zero miqdor ko'satkichlari va sifat ko'rsatkichlari boshqa-boshqa narsa. Yozuvchi Daniel Burstin ta'kidlaganidek: "Siz To'var obrazini xoxish va tuyg'u bilan bog'lasangiz bu obraz kuchli emotsional ta'sir kasb etadi. Konsyumerizm va din shunga asoslanadi; Gebbels aynan shunday usullardan foydalanib o'z fyureri rejalarini amalgam oshirishida yordam bergan edi. Agar siz ratsional fikrlashga emas, tasavvurga ta'sir qilsangiz, xokimiyatni qo'lga olgan bo'lasiz. Napoleon buni bilardi va shuning uchun: "Tasavvur dunyoni boshqaradi" – degan edi. [8,13]

Balki ekologik ta'lim muammolaridan biri aynan shundadir: u irratsional yo'l bilan, ya'ni inson xususiyatlari va ko'rsatmalarida murojaaaat qilishi orqali shakllangan. Ishonch va ko'rsatmalarni mantiqiy yo'l bilan yanchib o'tishga harakat qiladi. [11,13]

Konsyumerizmga tanqidiy munosabatda bo'lish uchun asl sabablari va maqsadlarini anglash uchun ehtiyoj hamda mavjud iqtisodiy – "Chiqindilar iqtisodiyoti" ga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish talab etiladi. Bu vaziyatda o'qituvchilarning tayyor yechim va qarorlarini taqdim etilishiga moyilligi xavf tug'diradi. Ekologik beqarorlik borasida qo'llanmaning dastlabki boblariga keltirilgan mulohaza dalillarni qabul qiluvchi ko'pgina o'qituvchilar topiladi. Keltirilgan dalillar romantika davridan shavfqatsiz sanoat inqilobini inkor etgan shoir, rassom va yozuvchilar g'oyalaridan kelib chiqadi. Lekin maktab tizimida shakllanadigan bu o'qituvchilarning zamonaviy yechimlari sanoat davrining ma'naviyat va ijtimoiy tartib haqidagi tasavvurlariga tayanadi. Ular uchun barqaror rivojlanish (yoki yana ham soda o'qituvchilar uchun, "ekologiya") odamda, shaxsiy darajada qolib ketadigan vijdon va axloq masalasidir. Bu shanbalik bo'ladimi, mahalliy hududni tozalash, daraxt yoqish yoki ekologik mezonlarga tayanib mahsulot tanlash bo'ladimi, baribir, insonlar: "Qaniydi, hamma ham ko'chani toza tutsa, ... daraxt eksa, ... plastik paketlarni kamroq sotib olsa, ... bir-birini hurmat qilsa, ... " – qabilida harakat qilishlari kerak. [1,4,8]

Xa, qaniydi ... bular hammasi to'g'ri va dolzarb bo'lishiga qaramay dasturiylamal bo'la olmaydi. Ular insonlarni harakat qilishiga chorlamaydi chunki Pol Haken ta'kidlaganidek, bu chaqiriqlar "doimiy o'simlik parheziga", yog'ini faqat o'simliklarda olinadigan mahsulotlar bilan oziqlanishiga o'tishga maslahatdek jaranglaydi. [1,4] Ekologik shiorlar insonlar uchun o'zini-o'zi chegaralashga, o'zini qurbon qilishga va ya'ni, yomonni, naturar xo'jalik davriga chaqiriqdek tuyulidi. Ikkala qutb afsonalariga tanqidiy munosabatda bo'lish nisbatda amaliyroq barqaror rivojlanishi taqlimini yaratish maqsadida maydonni "tozalash" uchun kerekka o'xshaydi. Aks holda biz kuch – g'ayratimiz va zaxiralarimizni yo'qotuvchilar uchun romantik tuyuladigan omillarning izzat – nafsini qondiradigan va siyosatdanlarini talablariga mos keladigan samoris modelini hayotga tadbiiq etishga sarflagan bo'lamiz. Lekin bu ma'lum muddatdan keyin jiddiy afsuslaringizga olib keladi. [10,11] Ekologik muommaning "qanidi hamma ham... " sifatida namoyon bo'lgan asosiy "g'oyasi" reklamalar cheklanganligini ko'rsatish uchun qo'llanmada "maxbus dilemmasi" mashqiga asoslangan moxokama materiallari taklif etiladi. Bu mashq aksariyat o'qituvchilar

ham o'quvchilar ham barqaror rivojlanish kabi umumbashariy ishga nima sabbdan o'z hissalarini qo'shishmayotganini tushunishga yordam beradi.

II BOB Asosiy qism

2.1. Dunyoqarash izlab

Bizning oldingi harakatimizni ilg'or fikrlar belgilab beradi. Fikrlar ko'pincha masalan olamni mashina bilan qiyoslash – uskunalar sabab va natijalar dunyosi bashorat qilsa bo'ladigan olam singari o'xshatish va shaklini oladi.

Eynshteyn va uning “Nazariya bizning kuzatishlarimizni belgilaydi” degan g'oyasiga qaytsak, xozirgacha qarama-qarshi nuqtai nazarlar mavjud. Olamni mexanik ravishda bo'laklarga bo'lib mushoxada qilish, uni to'g'ri aks ettirishga ishonish qiyin. Aksincha bu ilmiy abstraksiyani tasvirlab beruvchi o'xshatishdan iborat. Bu usul muayyan chegaralar doirasiga juda qo'l keladi: raketalar uchadi, jismlar yerga qaytib tushadi, dvigatellar ishlaydi, jamiyat va iqtisodiyot boshqariladigandek ko'rinadi, ilm ixtiyoriy ravishda sohalarga bo'linadi va

o'quvchilar bilim oladi...,soat yurishda davom etadi.Biroq real olam ancha murakkab va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigandek ko'rinadi.

Ehtimol,olamni uning ayrim qismlarini tasvirlashdan ko'ra,unda mavjud bog'lanish orqali yaqinroq tavsiflash mumkindir.Ekologiya biosferadagi o'zaro bog'liqlikning naqadar muximligini va biosferaning tiklanish xususiyati chegaralanganligini eslatib.insoniyat tarixida juda muxim rol o'ynadi.XX asr boshidan buyon Nyuton fizikasi moddiy olam manzarasining bir qismi sifatida qaralar edi: vaqt o'tishi bilan Hyuton qonunlari faqat ma'lum chegaralardagina o'rinli ekanligi aniqlandi.Kosmik hodisalar va atom ichidagi jarayonlarni bu qonunlar yordamida tushuntirib bo'lmaydi.

Noaniqlik olamga kirib keldi-yu,so'ng unit ark etmadi.Kompyuterlarning kashf etilishi dinamik tizimlarni modellash va olam faqat cheklangan parametrlar chegarasidagina o'zgarishlarini,ustiga-ustak notekis o'zgaruvchi turbulent tizim ekanligini aniqlash imkoniyatini berdi.Kichik hodisalar katta miqyosdagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.Tizim ichidagi uzviylik oqibati qisqa vaqt ichida ularning ta'siri yanada kuchayadi.To'g'ri chiziqli bo'lmagan konsepsiyalar bilan ishlaydigan matematiklar tizimning istalgan qismida o'zgarish ro'y berishi mumkinligini ham ko'rsatdilar.Shu bilan birga bu olimlar tizim o'z qismlari va elementlarining ishlashini boshqaradi,degan tezis inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat emasligini ham ko'rsatadilar.Hamma narsa faqat ma'lum chegaradagina haqiqatdir.Hamma narsa muximdir.Fizika va iqtisodiyot,pedagogika geografiya kabi bir-iridan uzoq sohalarida olamga dinamik,uzviy bog'liq va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan tizim sifatida qarashlar "ekologik" va "golografik" obrazlar atrofida shakllangan.Olamni tushunishning bunday o'zgarishiga eng kuchli ta'sir Yerning Oydan turib olingan surati sabab bo'lgan bo'lsa,ajab emas.Bu suratda ekologik tashkilotlar tomonidan bizning sayyoramiz tubsiz koinotdagi kichkina tirik sayyora ekanligini ko'rsatishda keng foydalaniladi.

2.2.Dunyoqarash shunchalik muhimmi?

Shubxasiz,muxim.Olim va faylasuf Devid Bam o'z niyatlarimizni tanlamaymiz,deb hisoblaydi. Bizning xulq-atvorimiz aslida tashbixli dunyoni tushunishimizga bog'liq. Bundan tashqari , bizda o'ylash steretiplari mavjud. Biz yangicha vaziyatlarga eski ko'nikmalarimizdan kelib chiqib munosabat bildiramiz. Balki , aynan shuning uchun xayotda o'zgartirish eng qiyin bo'lgan narsa – bu shaxsiy ong , degan fikr paydo bo'lgandir.

Biz ko'plab o'zaro bo'g'liklarga ega bo'lgan dinamik tuzish , biosferaning bir qismi xisoblanamiz. Bundan ko'rinib turibdiki, biz qancha ko'p sarflashimizdan qat'iy nazar , bu tuzumni boshqarmaymiz va boshqara olmaymiz ham. Barcha o'zgaruvchilar buzga oxirigacha ma'lum emas , shuning uchun ulardan eng axamiyatsizi xam tizim aloqalarining kuchayishi tufayli muxim ro'l o'ynashi mumkin. Ammo biosferani nazorat qilmaslik xam , unga ta'siro'tkaza olamiz va bugun o'ta eztiyotkorlik bilan amalgam oshirishimiz lozim. U extiyotkorlik omilini qabul qilish , ya'ni oqibatlari javobgarligini uni taklif etayotganlar zimmasiga yuklash. "Tabiatga qarshi emas , u bilan birgalikda ishlash" chaqirigi siyqasi

siqqan ibora emes , balki inson faoliyati faoliyatining muqarrar aksiomasi bo'lib qolmoqda. Chiqindi chiqarmaslik bemani vazifa emas , balki erishsa bo'ladigan maqsadga aylanmoqda

2.4. Yangi olam uchun yangi bilim zarurmi?

Napoleonni avval keltirgan fikrini yana eslaymiz: “Dunyoni tasvur boshqaradi”. Bilimning turli soxalari nazariychulari ham , amaliyotchilari ham tizimli fikrlash natijasi bo'lgan ko'plab yechimlarni taklif qiladilar. Bu insonlar Amary Lovins , Paul Hawken , Edvin Datschefski , Laster Brown , James Robertson va William McDonough kabi yozuvchi va tadqiqodchilar , arxitektorlar va yatakchi tadbirkorlardir. Ular ta'kidlashicha , kelajakka ishonch bilan qarashga asosimiz bor: olamni xech bo'lmaganda barqarorroq qila oladigan ko'plab g'oyalar, texnologiyalar va tizimli o'zgarishlar bor.

Bu yangi bilimlar padogoglar uchun ham zarur. Tizimlar , iqtisodiyot , texnologiyalarni tushunish; motivotsiya va xulq – atvorni tushunish; mazkur narsalarga soliq va davlatning boshqa iqtisodiy vositalari qanday ta'sir ko'rsatishni tushunish ayniqsa muxim.

Barqaror rivojlanish ko'pchilikni g'oyasiga aylanish uchun , pirovard natijada uning insonlar uchun axamiyatli ekanini tushunish zaarur. BMT ham bu fikrga qo'shiladi (3.2. “Olifita turmush tarsi marketingi”ga qarang). Barqaror rivojlanish xis – tuyg'lar , tasavvurlarni jumbushga keltiruvchi g'oya aylanishi kerek. Soddaroq aytganda , u xozirgiga qaraganda e'tiborni ko'proq bo'loshi zarur. Barqror rivojlanish ta'limi xozirgi zamon muommalari bilan bir qatorda kelajak imkoniyatlarini ham e'tiborga olish zarur. U “shaxsan men bundan nimaga ega bo'laman?” degan savolga javob topishga o'quvchilarga ko'maklashish kerak.

Xatto “ko'proq – yaxshiroq” bo'lgan va iste'molga yo'naltirgan qadriyatlar ustun qo'yilgan jamiyatga yo'naltirgan qadriyatlar ustun qo'yilgan jamiyatga ham kishilar shaharlar ozodaroq bo'lish kerakligini , tabiatni qo'riqlash zarurligini, nazarlarga yordam berish lozimligini tushunadilar. Ko'pchilik kishilar qancha boy bo'lsalar (agar bo'lsa!) , yuqoridagilarga erishish uchun mablag' shuncha ko'p bo'ladi , deb o'ylaydi. Xozircha esa xayot o'z maromiga davom etmoqda va u bilan yonma – yon “shopping” - xarid qilish mafkurasi insonlar ongiga tobora singib bormoqda. Barqaror ravojlanish g'oyasini amalgam oshirish murakkab va axamiyatsiz narsaday tuyulmoqda.

